



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 16-dekabr, № 263 (9158)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



SUV XO'JALIGIDA ENERGIYADAN SAMARALI FOYDALANISHGA QARATILGAN YANGI REJALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyevga 15-dekabr kuni suv xo'jaligida energiya samaradorligini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash ishlari yuzasidan axborot berildi.

Avvalo, eskirgan va energiya sarfi yuqori nasos agregatlarini zamonaviy, energiya tejamlorlariga almashtirish bo'yicha rejalar ko'rib chiqildi.

Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 274 ta nasos stansiyasi mavjud bo'lib, ular orqali 185 ming gektardan ortiq yer maydonlari sug'orilmoqda. Stansiyalardagi nasos agregatlarining yarmidan ko'pi 1979-yildan buyon ishlab chiqarilgan uskunalardan iborat, ularning energiya sarfi zamonaviy nasoslarga nisbatan 2-3 barobar yuqori.

Kegeyli tumanidagi eski agregatlardan biri zamonaviy energiya tejamloriga almashtirilganda, elektr energiyasining sarfi ikki barobar kamaygan.

Ushbu ijobiy tajribadan kelib chiqib, Qoraqalpog'istondagi 276 ta nasosni bosqichma-bosqich zamonaviy energiya tejamlor agregatlarga almashtirish rejalashtirilgan. Natijada yillik 25 milliard so'mga teng elektr energiyasi iqtisod qilinishi va loyiha sarf-xarajatlari 14 oy ichida o'zini oqlashi ta'kidlandi.

Bu borada mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash muhimligi ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universitetida erishilgan natijalar va kelgusidagi rejalar to'g'risida ma'lumot berildi.

Hozirgi kunda universitetda 8682 nafar talaba tahsil olmoqda, 571 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritmoqda, ilmiy salohiyat darajasi 73,5 foizni tashkil etadi.

Universitet xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishib, "THE World University Rankings 2026" reytingida dunyo universitetlari orasida 501-o'rinni, Markaziy Osiyo va Kavkazorti mamlakatlari bo'yicha 2-o'rinni, O'zbekistonda 1-o'rinni egalladi, "QS World University Rankings 2026" natijalariga ko'ra esa 469-o'ringa ko'tarildi.

KAPITAL BOZORI VA BANK SOHASIDAGI ISLOHOTLAR IQTISODIYOTNI BARQAROR MOLIALASHTIRISHGA XIZMAT QILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev kapital bozorini yanada rivojlantirish hamda bank sohasida xalqaro standartlarni joriy etishni jadallashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda muomaladagi qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati 275 trillon so'mni tashkil etib, birjuda erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar hajmi 4 trillon so'mga yetdi, bozorda 717 ta emitent va 77 ta professional ishtirokchi faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, kapital bozorining kapitallashuv hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 20 foizni tashkil etib, jahon ko'rsatkichlaridan ancha past ekanini, mazkur sohada hali katta salohiyat mavjudligi ko'rsatib o'tildi.

Shu munosabat bilan mahalliy kapital bozoriga kamida 1 milliard dollar investitsiya jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Jumladan, mahalliy va xorijiy fond birjalarida xalqaro standartlar asosida qimmatli qog'ozlarni joylashtirish — "dual listing" amaliyotiga ruxsat berish, shuningdek, valyuta obligatsiyalari, global depozitar tilxatlar, xorijiy qimmatli qog'ozlar hamda birja investitsiya fondlari kabi yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish rejalashtirilgan.

Taqdimotda "tartibga solish qumdoni" huquqiy rejimini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu mexanizm doirasida qumdon shartlarini nafaqat nozidentlar, balki rezidentlar uchun ham tatbiq etish, xorijiy investorlar uchun muddatsiz amal qilishini belgilash, shuningdek, chet el kompaniyalarining aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilishga ruxsat berish taklif qilindi. Bu xorijiy qimmatli qog'ozlarning norasmiy savdosini qisqartirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Mahalliy investorlarni kapital bozoriga faol jalb etish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi.

Bunda mahalliy kompaniya va banklarga Toshkent fond birjasida xorijiy valyutada obligatsiyalar chiqarishga ruxsat berish orqali tashqi bozorga chiqmasdan turib valyuta mablag'larini jalb qilish imkoniyatlari yaratilishi qayd etildi.

Shuningdek, emitentlarga o'z kapitali

O'tgan yilda universitet hududida 200 o'rinni zamonaviy IT markazi barpo etildi, raqamli kutubxona va registrator ofisi faoliyati yo'lga qo'yildi. Universitetning ta'lim yo'nalishlari besh yil muddatga xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi. O'quv jarayoniga dunyoning "TOP — 300" taligidagi universitetlarni bitirgan yurtdoshlarimiz va xorijiy professorlar jalb qilish.

Kelgusida iqlim o'zgarishini tahlil qilish uchun raqamli texnologiyalarga asoslangan milliy platforma yaratish, universitet hududida kosmik kuzatuv stansiyalari barpo etish, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlarini qabul qilish infratuzilmasini rivojlantirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, universitetning "Suv diplomatiyasi" magistratura yo'nalishiga xalqaro maqom berish ko'zda tutilgan. Davlatimiz rahbari "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universitetini dunyoning "TOP — 300" talik universitetlari qatoriga kiritish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishni topshirdi.

Taqdimotda xalqaro hamkorlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Qayd etilganidek, so'nggi oylarda Toshkent shahri ichimlik suvi va oqova xizmatlarini yaxshilashga bag'ishlangan birinchi Markaziy Osiyo konferensiyasi hamda Suv kodeksining kuchga kirishiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyaga mezbonlik qildi.

Ushbu tadbirlarning mantiqiy davomi sifatida kelgusi yil mart oyida Toshkent xalqaro suv haftaligini o'tkazish rejalashtirilgani ma'lum qilindi. Forum xalqaro institutlar va mintaq mamlakatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish va "yashil" texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muloqot maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tadbirni yuqori saviyada o'tkazish va kelgusi yilda Orolbo'y hududida suv tejash texnologiyalariga bag'ishlangan xalqaro forumga puxta tayyorgarlik ko'rish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

hajmidan ortiq, ta'minotsiz obligatsiyalar chiqarish imkoniyatini yaratish orqali obligatsiyalar bozorini kengaytirish mumkinligi ta'kidlandi.

Kapital bozorida nazorat va tartibga solish tizimini takomillashtirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Milliy qonunchilikni Qimmatli qog'ozlar komissiyalari xalqaro tashkiloti talablariga moslashtirish, regulyator vakolatlarini kuchaytirish, shuningdek, professional ishtirokchilarning ustav kapitaliga qo'yiladigan talablarni bosqichma-bosqich oshirish rejalarini taqdimot qilindi.

Bank sohasidagi islohotlar doirasida so'nggi yetti yilda tijorat banklarining aktivlari 5,3 barobar o'sib, 877 trillon so'mdan oshgani, banklarning soni 35 taga yetib, 2017-yildan beri 3 ta xorijiy bank O'zbekistonda faoliyatini yo'lga qo'ygani ta'kidlandi.

Mamlakatimiz ilk bor Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining moliyaviy sektorni baholash dasturida ishtirok etdi, unda bank nazorati, risklarni boshqarish, to'lov tizimlari, makroprudensial siyosat va inqirozlarni boshqarish kabi yo'nalishlar baholandi.

Baholash natijalaridan kelib chiqib, kelgusi yilda O'zbekiston moliya sektorini Bazel qo'mitasining Samarali bank nazorati bo'yicha 29 ta asosiy tamoyiliga to'liq moslashtirish belgilangan. Bu maqsadda barcha tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni to'liq xalqaro standartlar asosida yuritish, Bazel III standartlarini joriy qilish, Hukumat va Markaziy bank ishtirokida Moliyaviy barqarorlik kengashini tashkil etish vazifalari belgilandi.

Davlatimiz rahbari kapital bozori hamda bank sohasidagi islohotlar iqtisodiyotni barqaror moliyalashtirish, xususiy sektor ulushini oshirish va xalqaro investitsiyalarni faol jalb etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlab, belgilangan vazifalar yuzasidan mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

O'ZA.

YOSHLAR O'RTASIDA V PARAOSIYO O'YINLARI G'OLIBLARI — O'ZBEKISTON SPORT DELEGATSIYASI A'ZOLARIGA

Qadri qahramon o'g'il-qizlarim!

Hurmatli ustoz-murabbiylar!

Muhtaram ota-onalar!

Avvalo, barchangizni V Yoshlar Paraosiy o'yinlarida erishilgan ulkan tarixiy g'alaba bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida qit'amizning 35 ta davlatidan kelgan 1 ming 500 nafardan ziyod sportchilar o'rtasida bo'lib o'tgan g'oyat keskin bellashuvlarda sizlar jasorat va matonat fazilatlarini namoyon etib, musobaqalarning chinakam qahramonlariga aylandingiz va O'zbekiston paralimpiya harakati tarixida yana bir yorqin sahifa ochdingiz.

Ushbu nufuzli sport anjumanida sizlarni ko'p millati butun xalqimiz qo'llab-quvvatlab, barchangizga zafar va omadlar tilab turdi.

Ana shunday yuksak ishonchni sharaf bilan oqlab, 99 ta oltin, 57 ta kumush, 41 ta bronza medal bilan umumjamoa hisobida Osiyo qit'asida 1-o'rinni egallab, g'oliblik shohsupasiga ko'tarilganingiz muborak bo'lsin!

Turnir davomida O'zbekiston madhiyasi qariyb 100-marta yangragani sizlarning Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etishga qanday beqiyos hissa qo'shganingizdan dalolatdir.

Sizlar ulkan azmu shijoatingiz, bukilmas iroda va intilishingiz bilan Osiyoning milliy sporti jadal rivojlanayotgan Eron, Yaponiya, Tailand, Indoneziya kabi davlatlari jamoalarini ham ortda qoldirishga muvaffaq bo'ldingiz.

O'zbekiston Paraosiy o'yinlari tarixida bunday rekord natija, bunday buyuk zafar ilgari hech qachon bo'lmagan edi. Hech shubhasiz, sizlar yurtimiz sportida shonli tarix va an'analar yaratayotgan yoshlar, mohir mutaxassislar sifatida yuksak tahsin va tasannolarga munosib.

Butun xalqimiz, jonajon Vatanimiz sizlar bilan faxrlanadi. Sizlar O'zbekiston paralimpiya harakatining oltin avlodi, oltin vakillarisiz.

Bunday qahramon yoshlarimizga shon-sharaflar bo'lsin!

Ayniqsa, para pauerliftingchi o'g'il-qizlarimiz Bahriddin Xolbo'tayev, Elbek Farhodov, Oyshajon Rajabboyeva, Ruxshona O'ktamova o'z vazn toifalarida jahon rekordini, Nurillo Inobiddinov, Ezoza Abdujabborova, Azizbek Perdebayev, Ruxshona O'ktamova, Ziyodaxon Boqijonova, Zuhra Yuldasheva, Gulyuz Nematullayeva esa Osiyo rekordini o'rnatganlarini alohida ta'kidlash lozim.

Yana bir muhim tarixiy natija — sportchi qizlarimiz Madina Muxtorova, Farog'at Muxammadqulova, Mohichexra Ibragimova para yengil atletikaning yadro va nayza uloqtirish dasturlari doirasidagi murosasiz bahslarda raqblariga mutlaqo imkoniyat qoldirmasdan butun medallar jamlanmasini O'zbekistonga olib keldilar.

Bularning barchasi — sizlarning tinimsiz mehnatingiz, bukilmas irodangiz, iste'dod va mahoratigingiz, qolaversa, yurtimizda inson qadri amalda ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlarimiz natijasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Sizlar erishgan ulkan zafar Yangi O'zbekiston yoshlari qanday katta marralarni egallashga qodir ekanini amalda yana bir bor ko'rsatgani bilan ham g'oyat ahamiyatlidir. Bu g'alaba, hech shubhasiz, minglab yoshlarimizga g'urur va iftixor, intilish va ilhom manbai, katta tajriba maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, sizlarni mana shunday bahodir, dovuyurak va pahlavon farzandlar etib tarbiyalagan, ezgu intilishlaringizni doimo qo'llab-quvvatlab kelayotgan ota-onalaringiz,

mohir va jonkuyar murabbiylaringizga, barcha muxlislaringizga chin dildan minnatdorlik izhor etaman.

Aziz sportchi o'g'il-qizlarim,

Qadri murabbiylar!

Xabaringiz bor, yaqinda mamlakatimizda Paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish bo'yicha maxsus qaror qabul qildik.

Ishonchim komil, ushbu qaror sizlarning kelgusi faoliyatingiz uchun qo'shimcha ravishda yangi sharoit va imkoniyatlar yaratish, sport olamidagi yutuqlaringiz salmog'ini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihati — so'nggi yillarda Ijtimoiy himoya milliy agentligini tuzib, alohida Adaptiv sport turlari assotsiatsiyasi faoliyatini yo'lga qo'ydik.

Shuningdek, ushbu tizimda Matonat maktabi hamda sohada mutaxassislar tayyorlash bo'yicha institut tashkil qildik.

Natijada adaptiv sport turlaridagi yo'nalishlar soni 89 taga yetkazilib, yurtimiz mahallalarida ushbu sport turlari bilan doimiy shug'ullanuvchilar soni 45 mingdan oshdi.

Yurtimizda inklyuziv jamiyat barpo etish, nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga qaratilgan islohotlarimiz albatta izchil davom etiriladi.

Vatanimizga yuksak mehri va sadoqati, mustahkam iroda va matonati bilan millionlab farzandlarimizga o'mak bo'layotgan sizlardek qahramon o'g'il-qizlarimni Yoshlar o'rtasidagi Paraosiy o'yinlarida qo'lga kiritgan tarixiy g'alabangiz bilan yana bir bor chin qalbidan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, kelgusi faoliyatingizda ulkan omad va zafarlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

O'ZBEK SPORTI TARIXIDA YANA BIR YORQIN SAHIFA

Yoshlar o'rtasida V Paraosiy o'yinlarida mamlakatimiz delegatsiyasi umumjamoa hisobida 1-o'rinni egallab, g'oliblik shohsupasiga ko'tarildi

Iftixor

2025-yil mamlakatimiz sporti tarixida unutilmas g'alabalarga boy, g'oyat samarali yil bo'ldi, desak, aslo mubolag'a emas. Jumladan, sportchilarimiz tomonidan Olimpiya va paralimpiya yo'nalishidagi 50 dan ziyod jahon va qit'a chempionatlarida 700 ga yaqin medallar shodasi qo'lga kiritilgani so'zimizga yaqqol isbot bo'la oladi.

Joriy yilning 7 — 14-dekabr kunlari Birlashgan Arab Amirliklari mezbonlik qilgan Yoshlar o'rtasida V Paraosiy o'yinlarida atletlarimiz yana bir bor jasorat, matonat, mardlik hamda yurtga sadoqat namunasini ko'rsatib, Vatanimizning jahondagi obro'-e'tibori va nufuzini yanada yuksaltirishga salmoqli hissa qo'shdi.

Qit'amizning 35 davlatidan 1 500 nafardan ziyod yosh parasportchilar qatnashgan murosasiz bahslarda hamyurtlarimiz jami 197 ta — 99 ta oltin, 57 ta kumush va 41 ta bronza medaliga egalik qilgan holda umumjamoa hisobida 1-o'rinni egallagani Yangi O'zbekiston yoshlarining salohiyatini yana bir bor yaqqol namoyon etdi.

Poytaxtimizdagi Olimpiya shaharchasida Yoshlar o'rtasida V Paraosiy o'yinlarida yurtimiz sharafini munosib himoya qilgan yosh para sportchilar va ularning murabbiylarini taqdirlashga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda senator va deputatlar, sport, olimpiya, paralimpiya, ijtimoiy himoya sohalari mutasaddilari, keng jamoatchilik



vakillari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Tadbirda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar o'rtasida V Paraosiy o'yinlari g'oliblari — O'zbekiston sport delegatsiyasi a'zolariga tabrigini Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva o'qib eshittirdi.

Tabrikda ta'kidlanganidek, yoshlarimiz g'oyat keskin bellashuvlarda jasorat va matonat fazilatlarini namoyon etib, musobaqalarning chinakam qahramonlariga aylandi va O'zbekiston paralimpiya harakati tarixida yana bir yorqin sahifa ochdi.



YANGI O'ZBEKISTON: TARAQQIYOT ODIMLARI

O'ZBEK SPORTI TARIXIDA YANA BIR YORQIN SAHIFA

Mamlakatimiz Paraosiy o'yinlari tarixida bunday rekord natija, bunday buyuk zafar ilgari hech qachon bo'lmagan edi.

Turnir davomida O'zbekiston madhiyasi qariyb 100-marta yangragani yosh parasportchilarimizning Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etishga qanday beqiyos hissa qo'shganidan dalolatdir.

Ular ulkan azmu shijoati, bukilmas iroda va intilishi bilan Osiyoning milliy sporti jadal rivojlanayotgan Eron, Yaponiya, Tailand, Indoneziya kabi davlatlari jamoalarini ham ortda qoldirishga muvaffaq bo'ldi.

Tabrikda muzaffar sportchilarimiz O'zbekiston paralimpiya harakatining oltin avlodi, oltin vakillari sifatida e'tirof etildi.

Bu bejiz emas, albatta. Binobarin, musobaqa davomida para pauerliftingchi o'g'il-qizlarimiz – Bahriddin Xolbo'tayev, Elbek Farhodov, Oyshajon Rajabboyeva, Ruxshona O'ktamova o'z vazn toifalarida jahon rekordini, Nurillo Inobiddinov, Ezza Abdug'abborova, Azizbek Perdebayev, Ruxshona O'ktamova, Ziyodaxon Boqijonova, Zuhra Yuldasheva, Gulyuz Nematullayeva esa Osiyo rekordini o'rnatdi.

Sportchi qizlarimiz – Madina Muxtorova, Farog'at Muxammadqulova, Mohichexra Ibragimova para yengil atletikaning yadro va nayza uloqtirish dasturlari doirasidagi murosasiz bahslarda raqiblariga muammo qoldirishga qodir bo'ldi.

Bularning barchasi yosh atletlarimizning tinimsiz mehnati, bukilmas irodasi, iste'dod va mahorati, qolaversa, yurtimizda sportni rivojlantirish, inson qadriini amalda ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlarining natijasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Chunonchi, keyingi yillarda O'zbekiston davrug'ini dunyoga tanitishda matonat ko'rsatib kelayotgan parasportchilarni qadrlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida davlatimiz tomonidan misli ko'rilgan ishlar amalga oshirildi.

Prezidentimizning 2021-yil 18-maydagi "Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori sohani tizimli taraqqiy ettirish, bu borada amalga oshirilayotgan davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqishda dasturlamal bo'ldi.

Davlatimiz rahbari Tokioda bo'lib o'tgan Paralimpiya o'yinlarida munosib ishtirok etgan

sportchilar bilan uchrashuvda parasport bo'yicha yuqori natijalarga erishgan sportchi va murabbiylarni keng jalb etgan holda Matonat maktabini tashkil qilish tashabbusini ilgari surgandi.

Taqdir sinovlariga mardona bardosh berib, sabr-toqat va shukronalik ruhi bilan, hayotda o'z munosib o'rini topib, kerak bo'lsa, Vatanimiz sha'nini ulug'lashda jasorat ko'rsatayotgan parasportchilar haqiqiy matonat va qahramonlik namunasi ekanligini ta'kidlagandi.

Ushbu tashabbusning amaliy ro'yobi sifatida davlatimiz rahbarining 2022-yil 6-iyundagi qarori bilan paralimpiyachilarning Matonat maktabiga asos solindi. Bu nafaqat parasportni yanada rivojlantirishga, balki mamlakatimiz davrug'ini dunyoga tanitish borasida yoshlarning qo'lga kiritgan yutuqlarini, ularning ibratli hayot tarzini targ'ib qilish orqali mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirishga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Yana bir muhim jihat: so'nggi yillarda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuzilib, alohida Adaptiv sport turlari assotsiatsiyasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ushbu sohada mutaxassislar tayyorlash bo'yicha institut ish olib bormoqda.

Natijada adaptiv sport turlaridagi yo'nalishlar soni 89 taga yetkazilib, yurtimiz mahallalarida ushbu sport turlari bilan doimiy shug'ullanuvchilar soni 45 mingdan oshdi.

Mamlakatimizda inklyuziv jamiyat barpo qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga qaratilgan islohotlar, albatta, izchil davom ettiriladi. Demak, g'alabalar ham bardavom bo'ladi.

Yoshlar o'rtasida Y Paraosiy o'yinlarida Yangi O'zbekiston yoshlari qanday katta marralarni egallashga qodir ekanini amalda yana bir bor ko'rsatdi. Bu g'alaba, hech shubhasiz, minglab yoshlarimizga iftixor, intilish va ilhom manbai, katta tajriba maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Tantanalij anjumanda yangilangan dilbar kuy-qo'shiqlar yig'ilganlarga bayramona kayfiyat ulashdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sport bo'yicha vakili Odil Abdurahmonov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori Mansur Olloyorov ishtirok etdi.

Dilshod KARIMOV ("Xalq so'zi").

VAQT IZMIGA BO'YSUNMAS ABADIY G'OYA

"O'zbekiston: uchinchi Renessans – taraqqiyot konsepti" nomli kitob qo'limga tegishi bilanoq uni hafsala bilan o'qishga tutindim. Asarning debochasiyoq uning samimiy, teran va xolisona mezonlar asosida yozilganini ko'rsatdi. Uni o'qish asnosida ko'nglimda paydo bo'lgan hayajon va faxr hislarini ta'riflab berish qiyin. Chunki biz har kuni guvoh bo'layotgan, ba'zan odatiy holdek qabul qilayotgan ulkan o'zgarish va yangilanishlar muallif tomonidan teran mushohada, samimiyat hamda chuqur falsafiy yondashuv bilan yoritilgan.

Munosabat

Muallif O'zbekistondagi islohotlarni zamonaviy siyosiy jarayonlar bilan cheklab qo'ymaydi. U uchinchi Renessans g'oyasining ildizlarini Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk allomalari yashab ijod qilgan yurtning ko'p asrlik ma'naviy, ilmiy va madaniy merosi bilan bog'laydi. Uning fikricha, bugungi taraqqiyot tasodifiy emas, balki boy ma'naviy ildizga ega tarixiy jarayondir. Yangi O'zbekiston ana shu ma'naviy buloqdan kuch olgan holda global chaqiriqlarga zamonaviy yechim taklif etib kelmoqda.

Kitobni o'qish jarayonida Muhammad Abbos Xonning O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shaxsiyatidagi

insonparvarlik fazilatlariga berilgan urg'u meni chuqur ta'sirlantirdi. Keyingi to'qqiz yilni sarhisob etsak, mamlakatimizda qabul qilingan har bir qaror, har bir Farmonda faqat va faqat odamlarni o'ylab, aholiga qulaylik hamda yanada ko'p yengilliklar yaratish maqsadi mujassamligini yana bir bor angladim. Bu islohotlar butun mohiyati bilan "inson qadri" degan ulug' g'oyaga asoslangan.

Asarning yana chuqur taassurot qoldirgan jihatlardan biri undagi tanqiliy siyosatchi va davlat arbobi, Pokiston Bosh vaziri janob Muhammad Shahboz Sharifning samimiy so'zlari va mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev haqidagi fikrlari bo'ldi.

"Mazkur kitob qadrdon do'stim, Janobi Oliyarlari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini yaratish tashabbusini, uning g'oyaviy konsepsiyasini chuqurroq anglashga yordam beradi. O'zbek xalqining buyuk ajdodlari ma'naviy merosiga tayangan holda bu ulug'vor g'oya butun bashariyatning farovon kelajagiga xizmat qilishi shubhasizdir", deya ta'kidlaydi u.

Umuman, bu asar yurtimizdagi islohotlar haqida atroflicha tasavvur beradi, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan uchinchi Renessans g'oyasining mohiyati umuminsoniy taraqqiyotga qaratilgan ochiq, ma'rifiy va inson qadriini ustuvor qo'ygan siyosat bilan chambarchas bog'liq. Kitob muallifi bu g'oyaning ildizlarini o'tmish merosi, ayniqsa, ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy boylik bilan uyg'un holda talqin qilgani o'quvchida chuqur hurmat uyg'otadi.

Asarning nomidan ham bilinib turibdiki, u keyingi ming yillik davomida butun dunyoga ma'rifat, ziyo ulashgan, IX – XIII va XIV-XV asrlarda bo'lib o'tgan ikki Uyg'onish

davrining mantiqiy davomi bo'lgan uchinchi Renessans va uning yurtimizda yaratilgan mustahkam poydevori haqida. Muallifning o'zi ham buni shunday ifodalaydi: "Uchinchi Renessans g'oyasi – vaqt izmiga bo'ysunmas abadiy g'oyadir. Mening nazdimda, mazkur g'oya inson tafakkurining bemiis ummoniga quyiluvchi qudratli daryoga o'xshaydi. Fikrimcha, bu g'oya nafaqat O'zbekiston kelajagi uchun asos, balki yangi, yanada uyg'un va samarali dunyoni shakllantirishning innovatsion modeli hamdir".

Bu kitobning ahamiyati shundaki, u uchinchi Renessans g'oyasini faqat ichki siyosiy tushuncha doirasida qoldirmay, uni xalqaro miqyosda tushuntirish va targ'ib etish vositasiga aylantiradi. Xorijlik yozuvchining xolis nazari bilan yozilgan asar O'zbekistonning islohot yo'lini o'zi uchun rivojlanish modeli sifatida qabul qilayotgan boshqa mamlakatlar uchun ham qiziqish uyg'otishi mumkin.

Kobul TURSUNOV, Oliy Majlis Senati a'zosi.

KO'LAMI KENG O'ZGARISHLARGA XOLIS NAZAR

O'zbekiston Milliy kutubxonasida bo'lib o'tgan pokistonlik jurnalist va yozuvchi Muhammad Abbos Xonning "O'zbekiston: uchinchi Renessans – taraqqiyot konsepti" nomli kitobining o'zbek tilidagi nashri qadimoti nafaqat adabiy uchrashuv, balki ikki qardosh xalqni yanada yaqinlashtirgan muhim voqeaga aylandi.

Ushbu asar xalqimiz uchun juda qimmatli bo'lib, muallif uni boshqa tahlillardan farqli ravishda o'zining kuzatuvlari, shaxsiy mulohazalari va tajribasi asosida yozgan. Kitob sahifalarida bugungi O'zbekiston qiyofasi – ochiqlikka intilayotgan, yangilanishni boshdan kechirayotgan, inson qadriini eng oliy qadriyat sifatida belgilagani aks etgan.

Kitobni ayni vaqtda tarixiy davrnig badiiy-publististik aksi, Prezidentimizning davlatni strategik boshqarish salohiyatiga bag'ishlangan monumental doston sifatida ko'rishimiz mumkin.

Muallif uchinchi Renessans g'oyasini keng tahlil qiladi. Unga ko'ra, bu g'oya o'tmishning buyuk ilmiy-ma'naviy merosini zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan ulkan konsepsiyadir. Bugungi O'zbekistonda ilm-fan, ta'lim, innovatsiya,

madaniyat va insonparvarlik tamoyillari aynan shu ruhda rivojlanmoqda.

Pokistonlik yozuvchi asarida yana bir muhim jihatga – ikki mamlakat o'rtasidagi tarixiy bog'liqlikka e'tibor qaratadi. Markaziy va Janubiy Osiyoni birlashtirgan Buyuk Ipak yo'li, Bobur merosi, ikki xalqning ma'naviy yaqinligi, bularning barchasi bugungi hamkorlik uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Kitobda yurtimizdagi keng qamrovli islohotlar haqida ham puxta tahlillar berilgan: iqtisodiyot hajmining ikki barobarga o'sishi, eksport va investitsiyalarning sezilarli oshishi, yangi korxonalar, ta'lim va madaniyat sohalaridagi ulkan imkoniyatlar, inson ma'faatlarini markazga qo'ygan davlat siyosati. Yozuvchining fikricha, bu jarayonlar nafaqat O'zbekiston, balki butun mintaqadagi barqaror taraqqiyot uchun muhim namunadir.

Mazkur tadbirda qatnashar ekanimiz, bir narsani yana bir bor his qildik: zamonlar almasha-da, xalqlarni birlashtiradigan ikki kuch bor – ma'rifat va samimiy do'stlik. Muhammad Abbos Xon asari aynan shu ikki qadriyatni mustahkamlaydi. U O'zbekiston haqida yozganida, bu mamlakatga yangicha nazar bilan qarashni, uning zamonaviy taraqqiyot sari yo'lini xolisona anglashni taklif etadi.

Biz uchun bu kitob shunchaki taqdimot emas. Bu – O'zbekistonning yangi qiyofasi, uchinchi Renessans sari qadamlari, xalqaro hamkorlikka qaratilgan ochiq siyosati va ikki xalq o'rtasidagi ruhiy yaqinlikning yorqin namunasidir. Bu mazmundagi asarlar qancha ko'p bo'lsa, yurtimiz haqidagi xolis tasavvur shuncha ravshanlanadi, do'stlik ko'priklari esa yanada mustahkamlanadi.

Bugungi O'zbekiston o'ziga xos imkoniyatlar, yangi g'oyalar va Uyg'onish ruhi bilan yashayotgan mamlakat. Va bu ruhni dunyoga yetkazishga qaratilgan har bir asar biz uchun qimmatlidir.

Hilola YUSUPOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

TINCHLIK VA FAROVONLIKNI TA'MINLASH YO'LIDAGI MUSHTARAK INTILISHLAR

Shu kunlarda Turkmaniston mamlakat Konstitutsiyasida mustahkamlangan hamda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tan olingan doimiy betaraflik maqomining 30 yilligini nishonlamoqda. Turkmaniston uchun bu maqom tashqi siyosatning asosi bo'lib, barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi. Turkmaniston tashabbusi bilan BMTning "2025-yil – Xalqaro tinchlik va ishonch yili" rezolyutsiyasining bir ovozdin qabul qilinishi rasmiy Ashxobod tinchlikparvar siyosati tan olinganligining yorqin tasdig'i bo'ldi.

Aks sado

O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlar so'nggi yillarda keng qamrovli strategik sheriklik maqomiga ko'tarildi. Bunda davlat rahbarlari darajasidagi muloqotlar va amaliy kelishuvlar muhim o'rin tutmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Ashxobodda Turkmaniston doimiy betarafligining 30 yilligi, Xalqaro betaraflik kuni hamda "Xalqaro tinchlik va ishonch yili"ga bag'ishlangan forumdagi ishtiroki va nutqi, ushbu mamlakat rahbariyati bilan olib borilgan ikki tomonlama muzokaralar ikki qardosh davlat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlaringin izchilligini, tinchlik hamda barqarorlikni mustahkamlash borasidagi umumiy qarashlarni yaqqol ko'rsatib berdi.

O'zbek – turkman munosabatlari haqida gapirar ekanmiz, mamlakatlarimizni umumiy tarix, madaniyat va ma'naviy qadriyatlar, til, an'analar va urf-odatlari yaqinligi bog'lab turishini ta'kidlash lozim. O'zbekiston va Turkmaniston nafaqat yaxshi qo'shnilar, balki xalqaro maydonda ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama formatda bir-birini izchil qo'llab-quvvatlab kelayotgan strategik hamkorlardir.

So'nggi yillarda ikki mamlakatning o'zaro munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davlat rahbarlarining o'zaro hurmat, ochiq muloqot va konstruktiv hamkorlikka intilish namoyillariga asoslangan izchil siyosatining natijasidir. Xususan, so'nggi xalqaro forumgacha 2025-yilning o'zida oliy darajadagi beshta tashrif bo'lib o'tdi.

Birgina shu yilning 17-noyabr kuni Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov O'zbekistonga davlat tashrifi bilan keldi. Mazkur tashrif ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklikni chuqurlashtirishning navbatdagi bosqichi bo'ldi. O'zaro savdoni ko'paytirish, sanoat, energetika, transport, mashinasozlik, qishloq va suv xo'jaligi sohalarida samarali kooperatsiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston va Turkmaniston BMT, YEXHT, MDH, Islom hamkorlik tashkiloti hamda boshqa xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirmoqda. Terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, uyushgan jinoyatchilik hamda boshqa global tahdid va xatarlarga qarshi kurashda yaqin hamkorlik qilmoqda. Barcha darajalarda samarali muloqot davom ettirilayotgani, Hukumatlararo komissiya yig'ilishlari,

Ishbilarmonlar kengashi, Hududlar forumi, madaniyat kunlari, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlar mintazam ravishda o'tkazilayotgani e'tiborga molik.

Ikki tomonlama munosabatlarda iqtisodiy jihatga ustuvor ahamiyat berilmoqda. O'tgan yili o'zaro tovar aylanmasi 1,1 mlrd. dollarni tashkil etdi. Joriy yilning 8 oyida esa bu ko'rsatkich qariyb 700 mln. dollarga yetdi. Sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Poytaxtlarda savdo

chuqurlashtirish, elektr energiyasi tranziti bo'yicha hamkorlikni kengaytirish va istiqbolli konlarni birgalikda o'zlashtirishga kelishib olindi.

Transport va logistika sohasida yuk tashish hajmini oshirish, Turkmanboshi portini birgalikda rivojlantirish va poytaxtlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni qayta tiklash borasidagi kelishuvlar O'zbekistonga eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradi. Sanoat kooperatsiyasining yorqin misoli sifatida "Turkmaniston-Motors" va "O'zavtosanoat"

Ikki tomonlama munosabatlarda iqtisodiy jihatga ustuvor ahamiyat berilmoqda. O'tgan yili o'zaro tovar aylanmasi 1,1 mlrd. dollarni tashkil etdi. Joriy yilning 8 oyida esa bu ko'rsatkich qariyb 700 mln. dollarga yetdi. Sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Poytaxtlarda savdo uylari ochilgan, yuk tashish hajmlari oshmoqda. Yaqin yillarda savdo ko'rsatkichini 2 mlrd. dollarga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

Uylari ochilgan, yuk tashish hajmlari oshmoqda. Yaqin yillarda savdo ko'rsatkichini 2 mlrd. dollarga yetkazish vazifasi qo'yilgan. Bu maqsadga erishish uchun "Shovot – Toshhovuz" chegaraldi savdo zonasining ishga tushiriliishi muhim vosita bo'ladi. Shuningdek, ikki mamlakatning barcha viloyatlari ishtirokida navbatdagi forumni Xiva shahrida o'tkazish yuzasidan kelishuvga erishildi. Energetika sohasida hamkorlikni yanada

o'rtasida avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxona tashkil etish loyihasi alohida o'rin egalladi.

Turli san'at festivallari, madaniy tadbirlar, ta'lim va pedagogik almashinuvlarning har ikki o'lkada ham yo'lga qo'yilgani ikki davlat aholisi o'rtasida madaniy yaqinlik va o'zaro tushunishni yanada kuchaytirmoqda. Bunday tashabbuslar nafaqat xalqlar o'rtasida do'stlik ifodasi, balki ularning



tarixiy va ma'naviy merosini asrash, rivojlantirish hamda kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Joriy yil oktabr oyi oxirida O'zbekistonda Turkmaniston madaniyat kunlari o'tkazildi. Shuningdek, ta'lim sohasida faol hamkorlik yo'lga qo'yilgan. O'tgan o'quv yilida O'zbekiston ta'lim muassasalarida Turkmanistonning 1500 dan ortiq fuqarolari tahsil olgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, O'zbekistondagi turkman diasporasi 200 mingdan ziyod kishilarni tashkil etadi. Mamlakatimizda turkman tili, madaniyati va urf-odatlari saqlash hamda rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Davlatimiz rahbari qaysi mintaqaviy yoki xalqaro anjuman bo'lmasin, sermahsul va jobibador taklif va tashabbuslarni ilgari suradi. Ashxobod forumida ham shunday bo'ldi. Davlatimiz rahbari turkman xalqining zamonaviy o'ziga xosligining ajralmas qismiga aylangan betaraflik siyosati uning chuqur tarixiy an'analari, oliyanoblik, bag'rikenglik va yaxshi qo'shnichilik kabi ezuq fazilatlariga tayanishini alohida qayd etib, Turkmanistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda Tinchlik va betaraflik universitetini

tashkil etish bo'yicha tashabbusi O'zbekiston tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanishini ma'lum qildi. O'zbekiston 2027 – 2029-yillarga mo'ljallangan Qo'shimaslik harakatidagi bo'lajak railsigi davrida tinchlik va zo'ravonlikdan xolilik madaniyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha global harakatni rag'batlantirish, siyosiy muloqot asosida davlatlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash, jahonda bag'rikenglik, hamjihatlik va birdamlik muhitini qaror toptirishga ko'maklashishni bosh ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilashi ta'kidlandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Ashxoboddagi nutqi va erishilgan strategik kelishuvlar O'zbekiston – Turkmaniston munosabatlaringin siyosiy, iqtisodiy va gumanitar jihatdan yuksak darajada ekanligini tasdiqladi. Bu munosabatlar nafaqat ikki davlatning o'zaro qaratilayoti, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va farovonlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omil bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning izchil o'sishi, transport va logistika yo'nalishidagi yangi imkoniyatlar, madaniy-gumanitar almashinuvlarning faolligi o'zaro manfaatli munosabatlarning barqaror asosga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Shu ma'noda, O'zbekiston – Turkmaniston hamkorligi nafaqat ikki davlat rivojiga, balki butun mintaqada tinchlik, barqarorlik va farovonlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Abdug'affor QIRG'IZBOYEV, Namangan davlat universiteti rektori, tarix fanlari doktori, professor.

2026-yil 1-martdan tadbirkorlik faoliyatiga oid davlat xizmatlari va ayrim xususiy xizmatlarni tadbirkorlarga "Yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatish bo'yicha "Biznes hamroh" loyihasi amalga oshiriladi.



Uchrashuv

PARLAMENTLARARO ALOQALARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMASI



Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Raisi U Von Sik boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamda ta'lim sohalaridagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada faollashtirish, jumladan, parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Xususan, Koreya Respublikasining nufuzli oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rganish yo'lga qo'yilgani alohida qayd etildi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari va Koreya Respublikasi parlamentlari rahbarlarining uchrashuvlari formati ishonchli

muloqot maydoniga aylangani aytiladi.

Tomonlar Toshkent shahrida o'tkaziladigan navbatdagi yig'ilish doirasida ham amaliy va samarali natijalarga erishish yuzasidan o'zaro fikr almashdi. 2023-yil sentabr oyida Seul shahrida hamda 2024-yil oktabr oyida Ashxobod shahrida o'tkazilgan uchrashuvlar mazkur formatning dolzarbligini yaqqol namoyon etgani ta'kidlandi.

Subhat chog'ida barcha darajalarda yo'lga qo'yilgan faol parlamentlararo muloqot alohida urg'ulanib, joriy yil

davomida Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasining qator qo'mitalari rahbarlari darajasidagi delegatsiyalar O'zbekistonga tashrif buyurgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi. Shuningdek, parlament do'stlik guruhlar faoliyati o'zaro muloqotni muvofiqlashtirish va amaliy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

Shuningdek, "KOICA" tashkiloti bilan hamkorlikda O'zbekistonda "elektron parlament" tizimini joriy etish loyihasining amalga oshirilayotgani yuqori baholandi. Mazkur loyiha qonun ijodkorligi jarayonlarini takomillashtirish va parlament faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tomonlar parlamentlararo hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga tayyor ekanini tasdiqladi.

Uchrashuv yakunida Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Raisi faxriy mehmonlar kitobida yozuv qoldirdi.

MINTAQAVIY SHERIKLIK ISTIQBOLLARI

15 – 17-dekabr kunlari Toshkent shahrida Markaziy Osiyo davlatlari va Koreya Respublikasi parlamentlari rahbarlarining uchinchi yig'ilishi o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Anjuman

Tadbirning asosiy maqsadi – Markaziy Osiyo davlatlari hamda Koreya Respublikasi o'rtasida oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosini ta'minlashga ko'maklashish, parlamentlararo muloqotni chuqurlashtirish va o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishdan iborat.

"Inson qadri, ijtimoiy adolat va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'lidagi hamkorlik" mavzuidagi uchinchi yig'ilishning yalpi majlisi Markaziy Osiyo davlatlari va Koreya Respublikasi o'rtasidagi yaqin istiqbolga mo'ljallangan mintaqaviy sheriklikning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlanadi.

"Iqtisodiy hamkorlik, raqamli transformatsiya va sanoat: mintaqalar rivojining taraqqiyo't yo'llari" hamda "Barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish: ekologik tashabbuslarni amalga oshirishda

parlamentlarning roli" mavzularida 2 ta sessiya o'tkazish ham rejalashtirilgan.

Shuningdek, parlamentlararo komissiyalar va do'stlik guruhlar a'zolari ishtirokidagi uchrashuvlarda qonunchilik sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish maqsadida "think-tank" va ilmiy doiralar vakillari bilan muhokamalar tashkil qilish ham nazarda tutilgan.

Kecha Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Raisi U Von Sik boshchiligidagi parlament delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi.

Toshkent xalqaro aeroportida mehmonlarni Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev kutib oldi.

Shu kunning o'zida Koreya Respublikasi parlamenti a'zolari "Yangi O'zbekiston" bog'iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumentiga gulchambar qo'ydi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.

Onlayn muloqot

Qo'shma tashabbuslarga e'tibor

Kecha "O'zbekiston – Qatar" va "Qatar – O'zbekiston" hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhlar a'zolari o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlash masalasiga bag'ishlangan onlayn muloqot bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi munosabatlar hamisha o'zaro ishonch hamda hurmat tamoyillari asosida izchil rivojlanib borayotgani qayd etildi.

Muloqot davomida parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida urg'u berildi. Xususan, do'stlik guruhlar o'rtasida mintazam uchrashuvlar o'tkazish, qonunchilik masalalari bo'yicha fikrlashish, qo'shma tashabbuslarga e'tibor qaratish muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish, tegishli qo'mita va komissiyalar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, yosh parlament a'zolari uchun malaka oshirish dasturlarini tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida tomonlar bunday muloqotlar O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi parlamentlararo aloqalarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilishini ta'kidlab, hamkorlikni izchil davom ettirishga kelishib oldi.

"Xalq so'zi".

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

MUNOZARALAR QIZG'IN, FIKRLAR KONSTRUKTIV, SAVOLLAR ASOSLI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan masalalar atroflicha ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishbilanmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi moddalarning noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilmoqda. Xususan, Jinoyat kodeksi aholi salomatligi va genofondiga qarshi jinoyatlarga oid alohida bob bilan to'ldirilib, aholi salomatligi va genofondiga

oshib borishidan ham ko'rish mumkin.

Ta'lim tizimiga ajratilayotgan mablag'lar miqdori esa o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 14 foiz oshib, 57,2 trln. so'mni tashkil etdi. Bu mablag'ning 66 foizi umumiy ta'limga, 21 foizi maktabgacha ta'limga va 13 foizi kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan.

Yig'ilishda fraksiya a'zolari byudjet ijrosi borasida o'zlarini qiziqitirgan masalalar yuzasidan hukumat vakillarini savolga tutdi. Jumladan, fraksiya rahbari Alisher Qodirov davlat moliyaviy nazoroti bo'yicha aniqlangan kamchiliklar, jumladan, byudjet mablag'laridan noto'g'ri foydalanish holatlariga



jiddiy xavf soluvchi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi moddalar kiritilayapti.

Shuningdek, Jinoyat kodeksiga narkotiklarning noqonuniy muomalasiga hokimiyati (mansab) vakolatlarini suiste'mol qilish yo'li bilan homiylik (rahnamolik) ko'rsatish hamda g'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish va uning faoliyat yuritishini ta'minlash kabi qilmishlar uchun jinoyi javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi normalar belgilanmoqda.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasida nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini bildirdi. Deputatlar qonun loyihasining qabul qilinishi aholi salomatligini muhofaza etish, millat genofondini asrashga xizmat qilishini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatladi.

Yig'ilishda Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining joriy yil to'qqiz oyidagi ijrosi to'g'risidagi hisobot ham ko'rib chiqildi.

Deputatlar partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, tadbirkorlar uchun joriy yilning to'qqiz oyida qo'shilgan qiymat soligidan manfiy farqni qoplash uchun soliq to'lovchilarga 18,1 trln. so'mlik tushumlar, shuningdek, 1,4 trln. so'mga teng keshbek summalar qaytarib berilgani, jarimalar soni va miqdorlari qisqartirilayotgani, byudjetdan subsidiyalarni taqdim etilayotgani, soliq imtiyozlari berilayotgani tadbirkorlik faolligini oshirish uchun imkoniyatlar sifatida baholandi.

Muhokamada so'ng deputatlar Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining joriy yil to'qqiz oyidagi ijrosi to'g'risidagi hisobotni qo'llab-quvvatladi.

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2025-yil to'qqiz oyidagi ijrosi haqidagi hisobot muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish hamda fuqarolar uchun munosib sharoitlar yaratish davlat moliyaviy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qolmoqda. Buni Davlat byudjetidan ushbu sohaga ajratilayotgan mablag'lar hajmining yildan-yilga

to'xtalib, hisobot davrida 3 trln. so'mga yaqin mablag' asossiz xarajat qilinganini ta'kidladi.

Fraksiya a'zosi Dilnoza Azizova esa hisobot davrida axborot-kutubxona markazlari uchun byudjetdan 207,2 mlrd. so'm mablag' sarflanganidan kelib chiqib, bu mablag'ning manzilli sarflanishi masalasini ko'tardi. Xalq vakilining ta'kidlashicha, deputatlar hukudlarga o'rganishga chiqqanida aksariyat kutubxonalarning nafaqat moddiy-texnik ta'minoti talabga javob bermaydi, hatto, ular joylashgan binolar ta'mirga muhtoj.

Fraksiya a'zosi Nodirbek Tilavoldiyev xizmatlar sohasida eng baland narx ko'tarilgan tarmoq ichki havo qatnovi bilan bog'liq bo'lganini, jumladan, chiptalar narxi 61 foizga oshirilganini qayd etib, bunga nima sabab bo'lgani bo'yicha Transport vazirligi vakilidan izoh so'radi.

Hukumat vakillari deputatlar savollarga atroflicha tushuntirish berib o'tishdi.

Qizg'in muhokamadan so'ng deputatlar hisobotni qo'llab-quvvatladi.

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimizning "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi Farmoni deputatlar diqqat markazida bo'ldi.

Mazkur hujjat bir guruh fuqarolarga nafaqat yangi hayot boshlashi uchun imkon berishi, balki jamiyatda ijtimoiy birdamlik va bag'rikenglik qadriyatlarini mustahkamlashga ham xizmat qilishi ta'kidlandi.

Yig'ilishda farmatsevtika faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, bu sohani rivojlantirish, yuqori talabga ega bo'lgan dori vositalari va tibbiy buyumlarni mahalliyashtirish, yangi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda aholini sifatlil va arzon mahsulotlar bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, amaldagi tartibda buyurtma asosida ishlab chiqariladigan dori vositalariga ro'yxatdan o'tkazish guvohnomasining aynan buyurtmani bajaruvchi tashkilotga berilishi texnologiyalar transferini cheklamoqda. Qonun loyihasida mazkur muammoni bartaraf etish



maqsadida "texnologiyalar transferi" tushunchasi kiritilmoqda. Ya'ni dori vositalari va tibbiy jihozlarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini bir farmatsevtika tashkilotidan boshqa farmatsevtika tashkilotining ishlab chiqarish maydoniga ko'chirish amaliyotini joriy qilish taklif etilmoqda.

Muhokama jarayonida deputatlar qonun loyihasi yuzasidan o'z savollari va takliflarini bildirdi. Jumladan, fraksiya a'zosi Manzura Salimova "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasiga kiritilayotgan qo'shimchalar yuzasidan fikr bildirdi. Unga ko'ra, agar Davlat farmakopeyasi talablari bilan boshqa texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelsa, sifat ko'rsatkichlari va ularni sinovdan o'tkazish usullariga doir masalalarda Davlat farmakopeyasi talablari ustuvor bo'ladi.

Deputat mazkur holat amaliyotda muayyan e'tirozlarga sabab bo'lmaydimi, degan savolni ko'tardi.

Qonun loyihasi tashabbuskorlari bu bo'yicha atroflicha tushuntirish berib o'tdi.

Yig'ilishda fraksiya a'zolari qonun loyihasini qo'llab-quvvatlagan holda, kun tartibidagi boshqa masalalarni ham atroflicha ko'rib chiqishdi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida deputatlar dastlab Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari



byudjetlarining 2025-yil to'qqiz oyidagi ijrosi haqidagi hisobotni muhokama qilindi.

Fraksiya a'zolari hisobotda partiya dasturiy maqsadlarida ustuvor, deb belgilanadigan sohalariga ajratilgan mablag'larga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, bolalar nafaqasi, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari uchun 9 936,2 mlrd. so'm mablag' ajratilgani. Respublika bo'yab 4,5 mln. nafar fuqaro daromadli mehnat bilan band bo'lgan, ishsiz va daromadini oshirish istagida bo'lgan 185 ming nafar fuqaro kasb-hunarga o'qitilgan.

Hisobotni muhokama qilish jarayonida ayrim masalalarda deputatlar mas'ullarga savollar berib, qat'iy pozitsiyalarini bildirdi. Xususan, fraksiya a'zosi Shokirjon Ahmedov subsidiyalarni masalasiga to'xtalib, davlat tomonidan deyarli har bir sohaga subsidiya ajratilayotgani, lekin ularning natijasida yaratilgan ish o'rinlari yoki byudjetga qancha tushum bo'layotgani haqidagi tahliliy ma'lumotlar yetishmayotganini ta'kidladi. Deputat mas'ullardan o'tgan yillarga nisbatan taqqoslash va samaradorlik haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishni so'radi.

Mazkur savolga mas'ullar tomonidan atroflicha tushuntirish berib o'tildi.

Muhokama jarayonida fraksiyaning yana bir a'zosi Anvarxon Temirov Davlat byudjeti ijrosi haqidagi hisobot bo'yicha aniqlashtiruvchi savollarni berib,

uni palataga o'z vaqtda kiritish yuzasidan fikr va mulohazalarini bildirdi. Muhokamadan so'ng hisobot fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2025-yil to'qqiz oyidagi ijrosi to'g'risidagi hisobot ko'rib chiqildi.

Muhokamada hisobot davrida mamlakat iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolgani, yalpi ichki mahsulot hajmi 7,6 foizga o'sgani, Davlat byudjeti daromadlari va ijtimoiy xarajatlar ijrosi belgilangan rejalar doirasida amalga oshirilgani qayd etildi.

Shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda irrigatsiya va melioratsiya sohalariga yo'naltirilgan mablag'lar ahamiyati alohida ta'kidlandi. Xususan, o'rmon xo'jaliklari tomonidan 200 gektar foydalanilmayotgan yer maydonlari o'zlashtirilib, o'rmon fondidagi 151,4 ming gektar

maydonda o'rmonzorlar barpo qilingan. Shu bilan birga, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida 71,9 ming, Buxoro viloyatida 22,3 ming, Navoiy viloyatida 16 ming, Xorazm viloyatida 15 ming gektar maydonda "yashil qoplamalar" yaratilgan.

Fikr-mulohazalardan so'ng hisobot fraksiya a'zolari tomonidan

qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi ham ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, belgilanadigan normalar ekologiya, atrof-muhitni muhofaza etish va tabiatdan foydalanish yo'nalishidagi qonunchilik talablarining buzilishini, xususan, daraxtlar va butalarni g'ayriqonuniy ravishda kesish, yo'q qilish va ularni muhofaza etish, shuningdek, suv resurslarini asrash, ifloslantiruvchi moddalarni yo'l qo'yiladigan normativdan ortiq darajada atmosfera havosiga chiqarib tashlashning oldini olishga qaratilgan. Shuningdek, qonun loyihasida yuridik shaxslarga nisbatan atrof-muhitga yetkazilgan zarar miqdoriga mutanosib moliyaviy sanksiyalar qo'llash orqali javobgarlikning muqarrarlarni ta'minlashga qaratilgan normalar nazarda tutilmoqda.

Munozaralar davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasi atrof-muhitni muhofaza qilish, inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni kamaytirishga xizmat qilishini qayd etib, uni takomillashtirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini berdi. Qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

"Xalq so'zi".

Toshkentda Britaniyaning "CDE Group" va "Kiverco" kabi yetakchi kompaniyalari ishtirokida chiqindilarni qayta ishlovchi zavod quriladi.



QIRG'IZ ZAMINIDA NAVOIY SIYMO SI

O'sh shahrida buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy haykali va uning nomi bilan atalgan shohko'chaniy ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

E'tirof



Ushbu marosimda qatnashish uchun O'zbekiston madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov boshchiligidagi Andijon viloyati hokimligi, Yozuvchilar uyushmasi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti vakillari hamda mamlakatimiz elchisi Saidikrom Niyoziyov hamda O'sh shahri aholisi hamda mamlakatimiz elchisi Saidikrom Niyoziyov hamda O'sh shahri aholisi bilan borishdi.

O'zbekistonlik mehmonlarni qirg'iz – o'zbek davlat chegarasidagi "Dostuk" chegara-o'tish punktida Qirg'iziston madaniyat, axborot va yoshlar siyosati vaziri o'rinbosari Asqarali Madaminov, Prezidentning O'sh viloyatidagi vakolatli vakilining 1-o'rinbosari Ilyaz Tashbayev, O'sh shahar meri Jenishbek Toktorbayev va boshqa rasmiy kishilar kutib oldi.

Alisher Navoiy shohko'chasi va haykalning ochilish marosimida Qirg'iziston Prezidentining O'sh viloyatidagi vakolatli vakili Amankan Kenjebayev boshchiligidagi davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, O'zbekiston delegatsiyasi hamda OAV xodimlari ishtirok etdi.

Tadbir Alisher Navoiy haykalini ochish va uning poyiga gul qo'yish marosimi bilan boshlandi. Shundan so'ng ishtirokchilar e'tiboriga o'zbek va qirg'iz san'atkorlari tomonidan tayyorlangan, Alisher Navoiy ijodini aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari va uning g'azallariga bastalangan qo'shiqlardan iborat konsert dasturi taqdim qilindi.

O'sh viloyati rahbari o'z nutqida O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi do'stlik aloqalari va strategik hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilganini alohida ta'kidladi. Alisher Navoiyning ma'naviy merosi o'zbek va qirg'iz xalqlarini birlashtiruvchi muhim qadriyat hisoblanadi. O'sh shahrida uning haykali o'rnatilishi mamlakatlarimiz o'rtasidagi madaniy hamkorlikning yorqin timsolidir.

Tadbir Tashqi ishlar vazirligining janubiy viloyatlardagi vakolatxonasida davom ettirilib, o'zbek – qirg'iz delegatsiyalari o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlari muhokama qilindi. Muloqot chog'ida so'nggi yillarda ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarning jadal rivoji hamda erishilgan muhim yutuqlar haqida to'xtalib o'tildi. Tomonlar o'zaro aloqalarni yanada chuqurlashtirish, birgalikda qo'shma loyihalarni amalga oshirish va tajriba almashish haqida kelishib oldi.

Uchrashuvda O'zbekiston Prezidentining o'zbek va qirg'iz xalqlari orasidagi azaliy do'stlik va totuvlikni mustahkamlash ishlariga qo'shgan salmoqli hisssasi uchun O'sh shahri meri Jenishbek Toktorbayevni "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlash to'g'risidagi Farmoni o'qib eshittirildi. Ushbu mukofotni O'zbekiston madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov tantanali ravishda topshirdi.

J. Toktorbayev kamtarona faoliyatiga berilgan yuksak baho uchun O'zbekiston Prezidenti va o'zbek xalqiga o'zining chuqur hurmatini izhor etib, o'zbek va qirg'iz xalqlari o'rtasidagi tarixiy birodarlik aloqalarini hamda o'zaro hamkorlik munosabatlari yanada mustahkamlash va rivojlantirish yo'lida bor kuchini sarflashini ta'kidladi.

O'z navbatida, Ozodbek Nazarbekov Alisher Navoiy shohko'chasini ta'mirlash va haykalini o'rnatish loyihasini amalga oshirish hamda bugungi tadbirni tashkil etishda jonbozlik ko'rsatgan tashkilotchilarga O'zbekiston nomidan samimiy minnatdorlik bildirdi.

Tadbir davomida elchi Saidikrom Niyoziyov "Destinatsiya O'sh" turizm korxonalarini jamoat birlashmasi raisi Abduqodir Aliyevga "O'zbekiston turizm brendining Qirg'izistondagi elchisi" sertifikatini tantanali ravishda topshirdi.

"Dunyo" AA.
O'sh

“Markaziy Osiyo – Yaponiya” sammiti:

UMUMIY MAQSADLARNI BIRGALIKDA AMALGA OSHIRISH IMKONIYATI

Tokio shahri 19-20-dekabr kunlari “Markaziy Osiyo – Yaponiya” sammitini qabul qilishga tayyorlanmoqda. Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichi bu uchrashuvga katta umid bog'lagan. Xususan, noyob metallar, uran, gaz va boshqa resurslarga boy mintaqalar bilan aloqalarni chuqurlashtirish, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash hamda dekarbonizatsiya texnologiyalaridan tortib, infratuzilma qurilishigacha bo'lgan turli sohalarida hamkorlikni kengaytirish

Nuqtai nazar

Yaqin hamkorlik uzilishlarga barham beradi

Aytish joizki, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik Yaponiyaga foydali qazilmalar manbalarini diversifikatsiya qilish va yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlarning oldini olish imkonini beradi.

Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi ta'siri iqtisodiy hamkorlik, infratuzilmani rivojlantirishdagi ko'mak va “inson xavfsizligi” konsepsiyasiga asoslangan. Ushbu davlat sifatli infratuzilma, texnologiyalar transferi sohasidagi sheriklikni rag'batlantiradi, inson kapitalini rivojlantirish sohasida ko'mak ko'rsatadi, shuningdek, mintaqada ishonchli munosabatlarni o'rnatishga intiladi.

Yaponiya mintaqada an'adan buyon yaxshi obro'ga va ilgari innovatsiyalar hamda inson kapitali hisobiga kuchli texnologik sakrashga erishgan davlatning ijobiy imijiga ega. Qolaversa, bu davlatning ayrim yirik mamlakatlardan farqli o'laroq, Markaziy Osiyo mintaqasida “buyuk davlatchilik” geosiyosiy ambitsiyalari yo'q. Bularning barchasi ta'lim, ilmiy, axborot hamda madaniy-gumanitar sohalarida “yumshoq kuch”ni amalga oshirish uchun yaxshi asos yaratadi.

Bundan tashqari, Yaponiya ikki tomonlama munosabatlarni qurishdan tashqari, ko'plab ichki muammolarni – ekologiyadan tortib suv resurslariga qadrga ega bo'lgan mintaqadagi hal etish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida mintaqaviy hamkorlikni faollashtirishga doim ko'proq qiziqish bildirgan. Markaziy Osiyo davlatlari jahon iqtisodiy jarayonlarining xomashyo periferiya zonasida qolib ketmaslik uchun mintaqaviy kooperatsiyani kuchaytirishi kerakligi an'adan buyon ravshan.

Markaziy Osiyoda turli sohalarida yaqinroq hamkorlikni qayta jonlantirishga umid paydo bo'lmoqda va Yaponiya bu yerda turli mintaqaviy

loyihalarni ko'llab-quvvatlash orqali faol ishtirok etishi mumkin.

Dolzarbligi oshayotgan tashabbus

Markaziy Osiyo mamlakatlariga xomashyoga yo'nalganlikdan voz kechish uchun yuqori texnologiyalar va bilimlarga ega bo'lish zarur. Qolaversa, 2016-yildayoq Yaponiya “ilg'or muhandislik ta'limi tajribasi asosida Markaziy Osiyoda sanoat inson resurslarini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirishga ko'maklashishga tayyorligini bildirgan edi.

Mazkur tashabbusning dolzarbligi hozirda yanada oshgan. Agar Markaziy Osiyo davlatlari ochilgan imkoniyatlar o'ynasidan foydalanib, o'zlarining xomashyoga asoslangan iqtisodiyotlarini so'zda emas, balki amalda yuqori qo'shimcha qiymatli

“Yaponiya Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Bu mintaqani Yaponiyaning 2023-yilgi “Diplomatiya bo'yicha moviy kitobi”ga mamlakat tashqi siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida kiritilgan, shuningdek, yaqinlashib kelayotgan “Markaziy Osiyo – Yaponiya” sammiti bilan tasdiqlanadi.

mahsulotlar ishlab chiqarish hamda inson kapitalining o'sishi hisobiga qayta qursa, kutilgan natijalarni beradi. Ish sifatini yaxshilash nuqtayi nazaridan olib qaraganda, yaponcha biznes yuritish tamoyillaridan biri shuni ko'rsatadiki, biznesning hozir qayerda ekanligi emas, balki u qaysi yo'nalishda harakatlanayotgani muhim. Va bu yo'nalishda sun'iy ravishda yaratilgan to'siqlar qancha kam bo'lsa, Markaziy Osiyoda “yapon sakurasi gullashi” uchun imkoniyatlar shuncha ko'p bo'ladi.

Shu bilan birga, Yaponiya

imkoniyati ko'rib chiqiladi. Sammit doirasida Yaponiya hukumati rahbari Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilari bilan ikki tomonlama muzokaralar ham o'tkazadi.

Yaponiya ommaviy axborot vositalari xabar berishicha, oldinda turgan tarixiy sammit ortida chuqur geopolitik manfaatlar yotibdi. Tokiodagi uchrashuv bir necha asosiy yo'nalishlarni belgilab beradigan muhim voqea bo'ladi. Bu mintaqada Yaponiya ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi.



Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Bu mintaqani Yaponiyaning 2023-yilgi “Diplomatiya bo'yicha moviy kitobi”ga mamlakat tashqi siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida kiritilgan, shuningdek, yaqinlashib kelayotgan “Markaziy Osiyo – Yaponiya” sammiti bilan tasdiqlanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari esa, o'z navbatida, Yaponiyaga mintaqada

barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga salmoqli hissa qo'shayotgan strategik muhim hamkor sifatida qaraydi. Bu pozitsiya bir qator asosiy omillar bilan izohlanadi. Jumladan, mintaqaviy davlatlari mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab Yaponiya infratuzilma loyihalarini amalga oshirish doirasida va OESR, YETTB, OTB kabi xalqaro tashkilotlar hamda moliyaviy tuzilmalarda samarali hamkorlik qilish orqali Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

RAG'BAT – KUCH VA SHIJOAT MANBAI

Poytaxtimizda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan xalqaro va mintaqaviy fan olimpiadalari g'oliblarini taqdirlashga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Unda maorif sohasi fidoyilari, ustozlar, o'quvchi-yoshlar qatnashdi.

Ta'lim

Tadbirida ta'limga qaratilayotgan e'tibor o'zining amaliy natijalarini namoyon qilayotgani, jumladan, o'quvchilarimizning bu yil xalqaro fan olimpiadalarida erishgan yutuqlari avvalgi yillardagiga nisbatan 14 barobar ko'pligi e'tirof etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi asosida ta'lim sohasida olib borilayotgan shiddatli yongilanish jarayonlari mamlakatimiz taraqqiyoti misli ko'rilmagan tarzda ilgarilashida asosiy omil bo'lmoqda.

2025-yilda O'zbekiston o'quvchilari 29 ta xalqaro olimpiadada sharaflar bilan qatnashib, 40 ta oltin, 78 ta kumush, 92 ta bronza, jami 210 ta medalni qo'lga kiritdi.

Bu mamlakatimiz o'quvchilari tomonidan fan olimpiadalari tarixida misli ko'rilmagan natija hisoblanib, iqtidorli yoshlarimiz xalqaro fan olimpiadalarida 2020-yilda 25 ta, 2021-yil – 45, 2022-yil – 41, 2023-yil – 96, 2024-yilda 128 ta medalga loyiq ko'rilgandi.

Bunday yuksak natija Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda ta'limni yuksaltirishga berilayotgan e'tibor mevasi, shu bilan birga, fan olimpiadasida o'quvchilarning ishtirok etishiga oid mutlaqo yangicha tizim samarasidir.

Bu yilgi yutuqlarning o'ziga xosligi yoshlarimizning fan olimpiadalarining



yangi-yangi cho'qqilarini zabt etayotganidir. Jumladan, Birlashgan Arab Amirliklarida o'tkazilgan Xalqaro kimyo olimpiadasida 2 ta oltin, Boliviya'da o'tgan Xalqaro informatika olimpiadasida ilk kumush medal qo'lga kiritildi. Shuningdek, yuritimiz o'quvchilari ilk bor Yevropa qizlar matematika olimpiadasida qatnashdi va 3 ta medalga sazovor bo'ldi.

Joriy yilda yoshlarimiz “O'z uyingda devorlar ham qo'llaydi” degan naqlning amaliy isbotini yana bir karra namoyon etdi. Gap shundaki, o'quvchilarimiz Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Al-Xorazmiy nomidagi Xalqaro matematika va informatika olimpiadalarida 50 ta, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Xalqaro kimyo olimpiadasida 19 ta medalga ega chiqdi.

Birlashgan Arab Amirliklari, Avstraliya, Boliviya, Fransiya, Iordaniya, Tailand, Ozarbayjon va boshqa davlatlarda bo'lib o'tgan nufuzli fan olimpiadalarida

o'zbekistonlik yoshlarning bilim va salohiyatiga dunyo jamoatchiligi, ta'lim sohasi vakillari yana bir bor tan berdi.

Tantanali tadbirida xalqaro fan olimpiadalarining ko'plab g'olib va sovrindorlari, ularning ustozlari salmoqli pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Poytaxtimizdagi Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning o'quvchisi Daler Rahimov ana shunday baxtli yoshlardan biri. Joriy yilda kimyo fanidan o'tkazilgan turli xalqaro olimpiadalarida oltin medalga sazovor bo'lgan Daler 1 milliard so'mdan ziyod miqdordagi maxsus vaucher bilan mukofotlandi.

– Kimning bilimi ko'proq, zehni o'tkirroq, ishonchi mustahkamroq bo'lsa, albatta, u g'olib bo'ladi, – deydi Daler Rahimov. – Yuritimizda yoshlarga ko'rsatilayotgan gamxo'rlik, yaratilayotgan shart-sharoitlar kuchimizga kuch qo'shib, o'zimizga ishonchni oshiryapti. Ustozlardan o'zlashtirgan bilimlarimiz, yaqinlarimizning qo'llab-quvvatlovi, mehnatlarimiz samarasi bugun bizning sovrindorlar qatoridan o'rin olishimizga zamin bo'lmoqda. Moddiy va ma'naviy rag'bat bizga kelgusida ham o'z salohiyatimizni muntazam oshirishga, yangi yutuqlarga erishishimizga kuch beradi.

“Xalq so'zi”.

REKLAMA

“E-AUTOTECH” MCHJ

to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar olib borish yo'li bilan tashkillashtiriladigan avto, maxsus transport, uskunalar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi



E-AUTOTECH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi 142-qaroriga asosan “O'zsanotqurilishbank” ATB balansida bo'lgan:

Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, “Gulbahor” MFYda joylashgan 35 turdagi tekstil dastgohlari sotiladi.

■ Sotish sharti va narxi bilan “www.e-autotech.uz” sayti orqali tanishish imkoniyati bor.

■ Savdoga qo'yilgan mulklarni bevosita joyiga chiqib ko'rishingiz mumkin.

■ Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar “e-autotech.uz” platformasi orqali ariza berishlari kerak.

Call markaz: +99855-517-22-20. Rasmiy saytimiz: www.e-autotech.uz

O'zbekiston Milliy axborot agentligi jamoasi O'zAning Xalqaro axborot tahririyati yetakchi muharriri **Muharrama PIRMATOVA**ning vafoti munosabati bilan marhumaning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor etadi.

Poytaxtimizdagi “Yoshlar ijod saroyi” majmuasida “Saodat” jurnalining 100-yilligiga bag'ishlangan ma'rifiy kecha bo'lib o'tdi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 01.50 Topshirildi – 02.00 **1 2 3 4 5 6**